

## KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA YUQUMLI KASALLIKLAR FANINI O'QITISH IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

D.Sobirova PhD

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE Umumkasbiy fanlar kafedrası o'qtuvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitish haqida, klaster tushunchasi, sog'liqni saqlash sohasiga oid ilmiy tadqiqotlar natijalari, xalqaro standartlar talablariga javob beradigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar hususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'z.** klaster, yuqimli kasalliklar, ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogic texnologiya, uzluksiz ta'lim, xalqaro standart.

**Абстрактный.** В данной статье рассматривается преподавание науки об инфекционных болезнях на основе кластерного подхода, концепция кластера, результаты научных исследований в области здравоохранения, масштабные мероприятия по созданию системы высшего образования, отвечающей требованиям международного стандарта. .

**Ключевое слово.** кластер, инфекционные болезни, социально-экономические, педагогические технологии, непрерывное образование, международный стандарт.

**Abstract.** This article discusses the teaching of the science of infectious diseases based on the cluster approach, the concept of cluster, the results of scientific research in the field of health, and large-scale measures to create a higher education system that meets the requirements of international standards. .

**Key word.** cluster, infectious diseases, socio-economic, pedagogical technology, continuous education, international standard.

Mamlakatimizda barkamol yosh avlodni tarbiyalash, sog'lig'ini saqlashga katta e'tibor qaratilmoqda, yoshlarning zamonaviy ta'lim olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha izchil ishlar davom ettirilmoqda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari va xalqaro standartlar talablariga javob beradigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-maorifat va innovatsiya bilan erisha olamiz»<sup>3</sup>.

“O'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etishni tashkil qilish, raqamli ta'lim resurslari, uydan turib masofaviy ta'lim berish va ota-onalar bilimni oshirish texnologiyalarini joriy etish, rivojlantirish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni integratsiya qilish”<sup>41</sup>

Sog'liqni saqlash sohasiga oid ilmiy tadqiqotlar natijasida xalqaro standartlarga to'la javob berishga erishilmoqda, bu esa uning ja'on tibbiyotida taominlaydigan eng mu'im ji'atlaridandir. Keyingi yillarda sohada amalga oshirilgan modernizatsiya samarasida yutuqlar ko'lami kengayib bormoqda.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 25.01.2020 y. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020> (Murojaat sanasi: 20.02.2020 y.).

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4312-son Qarori <https://lex.uz/uz/docs/4327235>.

Bu borada ta'lim jarayonida dunyoning ko'pgina yetakchi ilmiy markazlari va olimlari tomonidan ta'lim klasterining modellarini yaratish, uning ilmiy-nazariy asoslari va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Ta'limga klaster yondashuvi muammosi umumiy mo'iyatli bo'lsa-da, uning amaliyotga tatbiq etilishi har bir fan tarmog'i va klaster hududining o'ziga xosligiga mos ravishda alohida yondashishni taqozo etadi. Chunki ta'lim klasterlarini fanning muayyan tarmog'i va aniq geografik hududga muvofiq amalga oshirish uning samaradorligini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi ushbu muhim ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar hamda ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi tarqoqlik bugungi kunda, uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zaruratini belgilaydi.

*Klaster* – o'zaro bog'liq korxonalarni birlashtirishning bir shakli bo'lib, bu hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Tashkillashtirish shakli jihatidan, klaster – vertikal ravishda integratsiyalangan tuzilma deyish mumkin.<sup>5</sup>

“Klasterlarning shakllanishida davlatning roli muhim o'rin tutadi. Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va boshqarishda klasterlardan foydalanish bo'yicha ma'lum tajriba to'plangan.

Yevropa mamlakatlari va AQSH da bu strategiya keng qo'llanilmoqda. Klasterlar Buyuk Britaniya, Gollandiya, Germaniya, AQSH, Daniya, Fransiya, Italiya, Finlyandiya, Hindistonda yaxshi rivojlangan. Daniya, Finlyandiya, Shvetsiya sanoatini klasterlar to'la egallagan.<sup>6</sup>

Germaniyada yaqin vaqtgacha mintaqaviy klasterlar rivojlanishi davlat aralashuvisiz kechar edi. Biroq 2003-yilda hukumat klaster tashabbuslariga jiddiy e'tibor qaratdi. Bu, birinchi navbatda, yuqori texnologiyali sohalarni loyihalashda amalga oshirildi. Davlat nafaqat mahalliy, balki boshqa manbalar hisobidan sanoat va ilmiy markazlar kuch-g'ayratini birlashtirishni ko'zda tutmoqda.

**Klaster** – hududiy konsentratsiyalashuvga asoslangan va texnologik zanjirga bog'langan tovar va hom ashyo yetkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan industrilashgan majmua.<sup>7</sup>

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, barcha sohalarda klaster tizimini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darhaqiqat neft, gaz, ximiya, biotexnologiya, farmatsiya, informatika, avtoqurilish, transport logistika, oziq-ovqat, ta'lim, baliqchilik, parrandachilik, asalarichilik, ipakchilik va boshqa sohalarda klaster tizimlarini yaratish ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish hajmini ko'paytiradi, sifatini

<sup>5</sup>Porter M. Mejdunarodnaya konkurensiya. - M., Mejdunarodnye otnosheniya, 1993

<sup>6</sup>Migranyan A.A. «Teoreticheskie aspekty formirovaniya konkurentosposobnyx klasterov».- Internet-resurs: <http://www.krsu.edu.kg/vestnik/v3/a15.html>

<sup>7</sup>1.A. Marshall. Printsipy ekonomicheskoy nauki. M.: Progress, 1993 g., 2. B.Sh. Usmonov, O. Radjabov. Izuchenie opyta razvitiya i upravlenie innovatsiyami v klasterax. T.: Fan va texnologiya, 2017 g. 3. O proekte perechnya pilotnyx programm razvitiya innovatsionnyx territorialnyx klasterov. <http://www.economy.gov.ru> 5. B.Sh. Usmonov, F.X. Raximov. Bilimlar, innovatsiyalar va inson kapitali rivojiga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. T.: 2019., №1. 81-87 b. 6. M.A. Raxmatov, B.Z.Zaripov. Istedodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir. Li Kuan Yu hikmatlari. T.: “Zamin Nashr”, 2019. ,7. A.Sh. Bekmuradov i Yang Son Be. Strategiya razvitiya tekstilnoy promyshlennosti Uzbekistana. Klasternyy podxod. Tashkent, 2006., 8. A. Soliev, X. Kodirov. Klasterizatsiya ekonomiki – vajneyshiy faktor strategicheskogo planirovaniya. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. T.: 2019., №1. 104-108 b.

yaxshilaydi, ilmiy tadqiqot ishlarining texnik ta'minoti darajasini yuksaltiradi, investitsiyaviy tashqi loyihalarda ishtirok etish, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Bundan tashqari, klaster tizimida ta'lim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy - uslubiy ishlanmalarni yaratish, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar hamda mutaxassislar me'natlarini ko'proq rag'batlantirish, yangi tovarlarni O'zbekiston brendi bilan ixtiro qilish uchun keng imkoniyatlar va sharoit paydo bo'ladi.

Shuningdek, mamlakatimizda xalqaro klaster koordinatorlarini tayyorlash ilmiy markazlari va klaster projeklari bo'yicha Kengashlar paydo bo'ladi.

O'zbekiston to'qimachilik va yengil sanoati tizimida klasterlarni shakllantirish masalasi mamlakat miqyosida emas, balki mintaqalar – viloyatlardagi aniq iqtisodiy – ijtimoiy shart - sharoitlar asosida, klaster nazariyasining mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotgani eng oqilona yo'llardan biridir.

Tibbiyotda yangicha, zamonaviy yondashuvlarni joriy etmasdan turib, yuqori natija ega raqobatbardosh kadrlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'z mohiyatiga ko'ra, tibbiyot uchun yangi bo'lgan, tibbiyotning ilg'or turi klaster sxemasini yaratish va joriy etish asosida klaster shaklidagi yopiq zanjirdan iborat, yuz foiz ob'ektini klaster etish ko'zda tutilgan edi.

Klasterli yondashuv asosida bo'lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligini kompleks loyihalashtirish o'ziga xos spetsifik sharoitlari har qanday fan o'qituvchilarini o'quv dasturlarini ekspertizadan o'tkazishga va talabalarni har bir semestr boshida, davomida va yakunida me'yoriy sinovdan o'tkazish uchun o'z tashxisiy materiallarini yaratishlariga undaydi; ushbu profil ta'lim muassasalarini boshqarish ta'lim jaryonini kompyuterlashtirish uchun lozim bo'lgan monitoring qilish yordamida amalga oshiriladigan sifat nazorati kasbiy mutaxassislariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning asosiy sharti hisoblanadi.

**Klaster yondashuvi bu:** alohida soha (ta'lim, iqtisodiyot va b.) bo'lib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan sohalar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi;

zamonaviylik va muntazam yondashuvdan kelib chiqqan holda bir tashkilotning tuzilishiga birlashtirilgan bir-biriga bog'liq bo'lgan turli soha sub'ektlarining majmui;

ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zining to'liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta teng huquqli bo'laklardan iborat bo'lgan tuzilma;

ishlab chiqarish va ta'lim dasturlarining ehtiyojlarini birlashtirish;

tashkilotning kelajak iqtisodiyoti uchun kadrlar salohiyatini shakllantirishni tashkil qilishning innovatsion samarali usuli;

ta'lim, fan, ishlab chiqarish tizimida innovatsiyalarni qo'llab- quvvatlashni shakllantirish vositasi;

turli ta'lim muassasalarini (bolalar bog'chasi - maktab - kollej - OTM) integratsiyalashuvi natijasida ta'lim tizimini izchillik tamoyili asosida qayta tashkil etish va h.k.z

Ta'limga nisbatan tatbiq qilinayotgan klaster yondashuviga mualliflik asosidagi ilmiy farazlarni ham taqdim etish maqsadga muvofiq;

ta'lim sohasida uning rivojlanish nazariyasi va texnologiyasini tartibga solish uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradigan yangi xizmat turlarini joriy etish, uzviylik, uzluksizlik va izchillik asosida ta'lim sohasi faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan tuzilma tuzish;

ta'lim turlarining innovatsion-integratsion hamkorlik tamoyillari asosidagi hamda maqsad umumiyliги va manfaat xususiyligidan kelib chiqqan holda belgilangan ijtimoiy buyurtmani ta'minlashga qaratilgan pedagogik-texnologik faoliyat uyg'unligini ta'minlash va hokazo. Demak xulosa qilib aytish mumkinki, ta'limga nisbatan tatbiq qilinayotgan klaster yondashuvi bu alohida bir sohada samarali hamkorlikka yo'naltirilgan tuzilma tuzish, uning rivojlanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradigan yangi xizmat bo'lib, undagi uzviylik, uzluksizlik va izchillik soha faoliyati samaradorligini intensiv oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi; ta'lim sohasidagi klaster yondashuvi belgilangan ijtimoiy buyurtmani ta'minlashning qulay tuzilmasini tizimga tatbiq etishni nazarda tutadi.

Hududiy ma'muriyatlarning roli faqat dastlabki bosqichda yuqoridir, masalan, yangi klasterlarni tashkillashtirishda, aynan shu hudud manfaatlarini hisobga olgan holda, istiqbolli klasterlarni tanlashda hudud ma'muriyatining roli yuqori bo'ladi. Keyinchalik esa, hududiy ma'muriyatlarning roli kamayib boradi va bozor iqtisodiyoti qonunlari va omillari oldingi planga chiqadi. Hudud hokimiyatlarining roli eng muhim va istiqbolli klasterlarni qo'llab-quvvatlash va "o'yin qoidalari" ni tartibga solishdan iborat bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 25.01.2020 y. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020> (Murojaat sanasi: 20.02.2020 y.).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori <https://lex.uz/uz/docs/4327235>.
3. Porter M. Mejdunarodnaya konkurensiya. - M., Mejdunarodnye otnosheniya, 1993
4. Migranyan A.A. «Teoreticheskie aspekty formirovaniya konkurentosposobnyx klasterov».- Internet-resurs: <http://www.krsu.edu.kg/vestnik/v3/a15.html>
5. A. Soliev, X. Kodirov. Klasterizatsiya ekonomiki – vajneyshiy faktor strategicheskogo planirovaniya. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. T.: 2019., №1. 104-108 b.